


**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE NAME AS AN INDICATOR OF CULTURAL AND SOCIAL DEVELOPMENT****Ziyodbek M. Abdullaev**

senior lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** name, indicator, globalization, motive, secularization, individualization, choice of name, cultural and economic changes

**Abstract:** This article reveals the formation of the anthroponymic system under the influence of socio-political changes in society and the manifestation of anthroponyms as indicators of these changes.

**Received:** 09.10.22**Accepted:** 11.10.22**Published:** 13.10.22**Ism madaniy va ijtimoiy rivojlanish indikatori sifatida****Ziyodbek M. Abdullaev**

katta o'qituvchisi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** ism, indikator, globallashuv, motiv, sekulyarisatsiya, individuallashuv, ism tanlash, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'siri ostida antroponimik tizimning shakllanishi hamda antroponimlarning mazkur o'zgarishlar indikatori sifatida namoyon bo'lishi ochib berilgan.

**ИМЯ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ КУЛЬТУРНОГО И ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ****Зиёдбек М. Абдуллаев**

старший преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** имя, индикатор, глобализация, мотив, секуляризация, индивидуализация, выбор имени, культурно-экономические изменения.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается формирование антропонимической системы под влиянием общественно-политических изменений в

## KIRISH

Ismlar nafaqat moda, ijtimoiy qatlam, din, madaniy va iqtisodiy rivojlanish kabi turli omillar ta'siri ostida shakllanib, o'zgarib boradi, balki ular jamiyatdagi o'zgarishlar ifodasi sifatida namoyon bo'ladi va shu sababli ham ularni madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar indikator deb atash mumkin.

## ASOSIY QISM

a) Din va mavjud an'analarning ism tanlashdagi ahamiyati. Dunyoning ko'pgina xalqlarida, jumladan o'zbeklarada ham, nemislarda ham farzandni o'z ota-bobolari nomi bilan atash an'anasi mavjud. Mazkur tarzda ism tanlash orqali o'tgan ota-bobolarni yod etish va shuningdek tug'ilgan farzandning o'zidan oldin o'tgan ajdodlari kabi (baxtli, kuchli) bo'lib ulg'ayishi maqsad qilingan.

Oilaviy an'analardan tashqari nemis oilalarida ham din ism tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy motivlar asosida farzandga ism berish o'zi e'tiqod qilayotgan dinga nisbatan hurmat, bo'ysunishni anglatadi. Diniy motivlar asosida ism tanlashda tug'ilgan farzand himoyasi, sodiqlik, shukronalik kabilar muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda ham nemiszabon mamlakatlarda diniy motivlar asosida ismlar qo'yilmoqda va bu tendensiyani yurtimizda ham kuzatishimiz mumkin. Lekin bu holat agar ismlarni tahlil etiladigan bo'lsak, diniy motivlar asosida ism tanlash nemiszabon mamlakatlarda kamayib bormoqda va bu sekulyarizasiya jarayoni deb nomlanadi. Ismlarni erkin tanlay olish yangi ismlar yuzaga kelishiga sharoit yaratmoqda.

b) Sekulyarizasiya. Sekulyarizatsiya bu din ahamiyati kamayishi deb tushunish mumkin. Ismlar sekularizatsiyasi deganda ism tanlashda diniy motivlar asosidagi ismlar berilishining kamayishi angalashiladi.

Nemis olimlari Gerhards/Hackenbroch 1894 yildan 1994 yilgacha davr oralig'ida nemis oilalarda tug'ilgan farzandlarga qo'yilgan diniy ismlar keskin kamayganini o'zlari olib borgan izlanishlari natijasida aniqlaganlar. Bu davr oralig'ida diniy ismlar 69 foizdan 28 foizgacha kamaygan va bu turli davrlarda turlicha sodir bo'lgan. Natsional-sotsialistlar hukmronlik qilgan 1934-1942 yillar oralig'ida diniy ismlar soni keskin tushishi qayd etilgan va haqiqiy nemischa ismlar soni ortgan. Demak, sekularizatsiya jarayoni hukmron kuchlar tomonidan tezlashtirilishi yoki sekinlashtirilishi mumkin.

c) Individuallashuv. Xalqlar madaniyati zamonaviylashuvi bilan bog'liq holda shaxslar individuallashuvi jarayoni - ular o'rtasidagi o'xshash sifatlarning kamayib borayotganligini kuzatish mumkin. Xuddi shu holat ism tanlashda ham ko'zga tashlanadi. Ota-onalar o'z farzandlariga boshqalarga o'xshagan ism emas, balki o'z bolasini boshqalardan ajratib turadigan

ismlar qo'yishi odat tusini olmoqda. Ismlar individuallashuvi natijasida oilaviy va diniy an'analar ahamiyati pasayib borayotganini kuzatish mumkin. Mazkur jarayon yuzaga kelishiga jamiyatda yuz berayotgan turli o'zgarishlar – globallashib borayotgan dunyoda shaxsning oila, qarindoshchilik rishtalaridan, o'zi tug'ilib o'sgan joydan uzoqlashuvi va mustaqilligi sabab bo'layotgan bo'lishi mumkin.

d) Globallashuv. Individuallashuv natijasida yangi tug'ilgan chaqoloqlar ismlari turli-tuman bo'lgan bo'lsada, lekin mazkur yangi paydo bo'lgan ismlar qaysi madaniyat ta'siri ostida shakllangani ma'lum emas. Madaniyatlar globallashuvi belgilaridan biri sifatida Gerhards/Hackenbroch ism tanlashda boshqa xalqlar madaniyatiga murojaat qilish ekanligini keltirib o'tadi. Bunda Gerhards/Hackenbroch nemis olimlari Max Horkheimer und Theodor W. Adornolarning zamonaviylashuv jarayoni natijasida milliy va boshqa xalqlar madaniyati o'zaro qo'shilib, transnatsional madaniyat yuzaga kelishi haqidagi nazariyalariga tayangan holda tadqiqot olib boradilar. Mazkur jarayon yuzaga kelishiga imkon yaratuvchi asosiy omillardan biri.

Ismlar globallashuvi XX asrning 50-yillari so'ngidan boshlab avj ola boshladi. O'zga madaniyatlarga xos ismlar ommalashuvi televideniya mavjud oilalar soni ko'payishi bilan ham bog'liq. 1894 yil chetdan kirgan ismlar umumiy ismlarning 23 foizini tashkil etgani holda, 1994 yil bu ko'rsatkich 65 foizni tashkil etdi.

Ommaviy axborot vositalari va televideniyaning ommalashuvidan tashqari yana boshqa omillar ham o'zga madaniyatlarning ism tanlashga ta'siri oshishini ta'minladi. Shuningdek, ikkinchi jahon urushidan so'ng uch g'olib davlatlar va Germaniya fuqarolarining o'zaro turmush qurushi, chet mamlakatlarga sayohatlar, ayniqsa, janubiy Yevropa davlatlariga, turli madaniyatlarga xos qo'shiqlar ommalashuvi ham ismlar globallashuviga turtki berdi. Yuqoridagilardan tashqari bu jarayonda gastarbeitrlarning madaniy ta'siri sezilarli bo'ldi. Germaniyada ism tanlashga chet el mamlakatlari bilan o'zaro aloqalar, chet el musiqa va kino, sport yulduzlarining ta'siri kuchli bo'ldi, deb aytish mumkin. Misol uchun, nemis ota-onalar o'z farzandlariga Amerika yoki boshqa mamlakatlarga xos bo'lgan ismlarni bera boshlashdi.

e) Iqtisodiy o'sish. XX asrning 60 yillari o'rtalarida boshlangan Germaniyada Federativ respublikasidagi iqtisodiy o'sishlar ham ism berishga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Aholi turmush tarzi yaxshilanishi bilan oilalarda tug'ilishlar soni ortib bordi, shuningdek, nemislarning chet ellarga turistik sayohatlari, qo'shimcha ishchi kuchlarning o'zga davlatlardan -Turkiya, Italiyadan chaqirilishi ham chet tillardagi ismlar soni ortishiga sabab bo'ldi.

Xemnits texnika universitetida ismlar bo'yicha eksperiment o'tkazilgan. Unga ko'ra ishtirokchilar eskirgan, doimo qo'llaniladigan (doimo urfda bo'lgan) va hozirda modada bo'lgan ismlarni ajratishlari kerak bo'lgan. Mazkur tajriba natijalari quyidagicha:

Eskirgan ismlar:

*Andrea, Birgit, Cornelia, Heike, Ines, Kerstin, Manuela, Petra, Sabine, Silke, Simone, Sylvia Dirk, Frank, Heiko, Holger, Jens, Joerg, Mario, Mike, Olaf, Peter, Torsten, Uwe*

Doimo qo‘llaniladigan (doimo urfda bo‘lgan) ismlar:

*Anna, Claudia, Jana, Katin, Maria, Susanne; Andreas, Alexander, Christian, Mathias, Michel, Thomas.*

Hozirda modada bo‘lgan ismlar: *Hannah, Johanna, Julia, Katharina, Lara, Laura, Lea, Lena, Leonie, Marie. Sara, Sophie; David, Felix, Florian, Jan, Jonas, Leon, Luca, Lukas, Maximilian, Niklas, Paul, Tim*

### **XULOSA**

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, har bir tilning antroponimik sistemasi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ta’siri ostida shakllanadi va amalda ularning inikosi sifatida namoyon bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdullaev, Ziyodbek (2021) Usbekische Personennamen-Etymologie, Grammatik, Pragmatik. PhD, Universität Regensburg, [https://epub.uni-regensburg.de/51175/1/DISS-Ziyodbek\\_Abdullaev\\_final\\_09\\_12\\_2021.pdf](https://epub.uni-regensburg.de/51175/1/DISS-Ziyodbek_Abdullaev_final_09_12_2021.pdf)
2. Abdullaev Ziyodbek (2017). PERSONENNAMEN IM DEUTSCHEN UND USBEKISCHEN: EINE KONTRASTIVE UNTERSUCHUNG. *Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал 1*, [https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal\\_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf](https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf)
3. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). Personal Names of Turkic or Uzbek Origin. *International Journal of Culture and Modernity*, Volume 18, 12-18., <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/391>
4. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). PERSONAL NAMES OF MONGOLIAN ORIGIN . *PEDAGOGS Jurnal*, 12(1), 62–65. Retrieved from <http://www.pedagoglar.uz/index.-php/ped/article/view/1460>
5. Gerhards, Jürgen und Hackenbroch, Rolf (1997). *Kulturelle Modernisierung und die Entwicklung der Semantik von Vornamen*. *Kölner Zeitschrift für Soziologie und Sozialpsychologie* 49, Heft 3, S. 410-439.
6. Grünwald, Gisela (1993). *Gesellschaftliche Veränderungen im Spiegel der Namengebung: Eine empirische Untersuchung anhand spanischer Vornamen in der Stadt Javea..* Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1994
7. ISKANDAROVA, S., & ABDULLAYEV, Z. (2018). Formation of personal names in languages of different systems. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(1), 58-60.
8. Shin, Kwang Sook (1979). *Schichtenspezifische Faktoren der Vornamengebung*.

9. Ziyodbek, Abdullaev (2022). O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA JINSNING IFODALANISHI. *EDITORIAL BOARD*, 613. (<https://dspace.uzhnu.edu.ua/jspui/bitstream/lib/-41278/1/Modern-problems-in-science.pdf#page=614>)